

ОЛДИ-СОТДИ ШАРТНОМАСИ

2022 й. «21» 10

295-13-190-OB/2022-

сон

"XORAZM KABEL SAVDO" МЧЖ (keyingi o'rinlarda "Yetkazib beruvchi" deb yuritiladi), o'zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktori **Raximov.X.R** bir tomondan va **Турткул туман Ободонлаштириш бошкармаси** (keyingi o'rinlarda "Oluvchi" deb yuritiladi), o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari **А.Юсупов** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. "Yetkazib beruvchi" o'ziga tegishli bo'lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikatsiyaga asosan "Oluvchi"ga mulk qilib topshirish, "Oluvchi" esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu *Shartnomada* belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

№	Tovar (mahsulot)lar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Bahosi
1	Кабельная муфта КН-2	dona	1	595000	595 000
2	Кабельные ремешки КР является стяжной хомут СИП Е778.	dona	250	1200	300 000
3	Траверс М-2	dona	14	39800	557 200
4	Провод сечение. 2x16 мм СИП-4	dona	6069	5900	35 807100
5	Провод сечение. 3x35+1x54,6 мм СИП-2	dona	2753	27500	75 707 500
6	Зажим анкерный клиновидный ответ-й DN-1	dona	476	24500	11662000
7	Прокалывающий герметичный зажим Р-645	dona	472	33000	15576000
8	Фасадное крепление BRPF-6	dona	151	3900	588900
9	Бандажная стальная скрепы СОТ36		150	22800	3420000
10	Бандажная стальная лента СОТ37		150	399	59850
11	Кабель сечение 4x50мм ² АВВГ	Metr	86	46200	3973200
12	Кабель сечение 1x95 мм АПвПу	Metr	60	69330	4159800
13	Подвесной поддерж. зажим ES-1500	dona	54	19900	1074600
14	Провод алюминиевая АС-50	dona	47.9	29900	1432210
15	Анкерный клиновидный зажим для СИП РА 1500	dona	30	34700	1041000

16	Анкерный кронш-н для магистр. СА 2000	dona	30	19900	597000
17	Узел крепление (Подкосный хамут) М6-Т	dona	22	75000	1650000
18	Кабельные наконечники сечение 70 мм ² DT-70	dona	16	7500	120000
19	Прокалывающий зажимы, Гибкие провода ЗПО,ЗПГО,ЗП1М	dona	14	28000	392000
20	Прокалывающий герметичный зажим Р-70	dona	12	40000	480000
21	Ограничитель перенапряжения ОПН	dona	4	59900	239600
22	Наконечник алюминиевый на 95мм ² 95-10-11-АУХЛЭ	dona	3	8000	24000
	Jami:				159456960

TO'LOV SHARTLARI

- 2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **159456960 (Bir yuz ellik to'qqiz million to'rt yuz ellik olti ming to'qqiz yuz oltmish)** so'm.
- 2.2. Sotib olinadigan tovar (maxsulot) uchun oldindan tulov miqdori 30 % ni tashkil kiladi. Yakuniy 70 % to'lov tovar (mahsulot) olingandan so'ng 30 (o'ttiz) bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.
- 2.3. To'lov shakli naqd pulsiz, pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. "Yetkazib beruvchi"ning majburiyatlari:

- 3.1.1. Tovar (mahsulot)ni shartnoma talablariga javob beradigan holatda "Oluvchi"ga o'z vaqtida topshirish.
- 3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruxi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak.
- 3.1.3. "Yetkazib beruvchi" to'plamda yaroqsiz, sifati lozim darajada bo'lmagan tovar (maxsulot) lar mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni sifatligiga almashtirish yoki ushbu shartnomaning 1.1.-bandiga muvofiq sifati lozim darajada bo'lmagan tovarning pulini qaytarib beradi.
- 3.1.4. "Yetkazib beruvchi" O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tovar (mahsulot)ga bo'lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.

3.2. "Oluvchi"ning majburiyatlari:

- 3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butligi bo'yicha qabul qilib oladi.
- 3.2.2. Sifati lozim darajada bo'lmagan tovar keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida "Yetkazib beruvchi"ni xabardor qiladi.
- 3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to'laydi.

4. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

- 4.1 Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.
- 4.2. Shartnoma qonunchilik o'zgarganda, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi:
- 5.2. Tovarni to'liq topshirmaganlik uchun "Yetkazib beruvchi" har bir kechiktirilgan kuniga topshirilmagan tovar qiymatining 0,5 % miqdorida, tez buziladigan tovarlar buyicha esa-10 % miqdorida jarima to'laydi.
- 5.3. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining, shuningdek butlanmagan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20 % miqdorida jarima to'laydi.
- 5.4. Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun "Oluvchi" har bir kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0,4 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.
- 5.5 Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirilib yuborilgan har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50% idan oshib ketmasligi lozim.
- 5.6. Neustoykani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
- 5.7. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar (maxsulot)lar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar "Yetkazib beruvchi" tomonidan qoplanadi.

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 6.1. Mazkur shartnoma 2022 yil " __ " _____ dan 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.
- 6.2 Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.
- 6.2. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
 - O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.
 - Fors-major xolatlarida

7. NIZOLARNI HAL QILISH

- 7.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirda O'z.R. Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.
- 7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sudda hal qilinadi.
- 7.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi, kelishish imkoni bo'lmaganda iqtisodiy sudda xal qilinadi.

8.FORS – MAJOR

8.1. Taraflardan biri shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda muayyan sharoitida oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-xavo sharoiti, xukumat tadbirlari, xokimiyat organlarining qarorlari, xarbiy nizolar, ichki tartibbuzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajirilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.

8.2. Mazkur shartnoma bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subektlari faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'grisida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari buyicha javobgar bo'ladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

10. Boshqa shartlar

10.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va har ikkala taraflar orqali imzolanishi kerak.

10.2 Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

10.3 Mazkur 159 456 960 so'mlik, 2 nusxada tuzilgan shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, _____ viloyat (tuman) g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi) tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

“Yetkazib beruvchi”

"XORAZM KABEL SAVDO" MCHJ

(ijrochining nomi)

Manzil: : Xorazm viloyati Urganch tumani

CHakkasholikor qishlog'i

Tel./faks ()

STIR 303835270

OKONX 71150

h/r 20208000800594114001

“Oluvchi”

Ободонлаштириш бошкармаси

(budjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Турткул туман Турткул куча 55

Tel./faks (61)532-33-28

sh/h* 401722860352337065200110012

budjetdan mablag' oluvchi STIR 204633184

OKED

G'aznachilik nomi *Moliya Vazirligi*

G'aznachiligi Турткул тумани

G'azna h/r 23402000300100001010

Bankning nomi АТБ Agrobank Urganch filiali



 Raximov.X.R

Bankning nomi Markaziy bank XKKM
Toshkent shahar bosh boshqarmasi

MFO 00014

Gaznachilik

Rahbar

M.O'.



19

A.Юсупов



**Тўрткўл тумани Тинчлик МФЙ худудига электр энергия таъминлаш учун
электротовар харид қилиш учун энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича
ўтказилган**

160429/1 сонли мажлис баённомаси

Катнашувчилар:

Комиссия раиси:

А.Юсупов-

Тўрткўл туман Ободонлаштириш
бошқармаси бошлиғи, комиссия раиси

Комиссия аъзолари:

М.Таджибаев

-Бўлим бошлиғи, комиссия аъзоси

М.Кулимбетов

Туман молия бўлими мутахассиси,
комиссия аъзоси

Р.Раимов

Бўим бошлиғи, комиссия аъзоси

Д.Ходжаниязов

Механик, комиссия аъзоси

Кун тартиби:

Тўрткўл тумани Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи энг яхши таклифларни танлаб олиш комиссияси раиси А.Юсупов мажлисда танлов комиссиясининг 5 аъзосидан 5 киши катнашаётганлигини айтиб ўтиб танлов комиссияси мажлисини очик деб эълон қилди.

Ушбу танлов бўйича 2021 йил 22 апрелдаги Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Конунинининг 58-моддасига мувофик энг яхши таклифларни танлаб олиш танлов ўтказилиши хақидаги элон танлов катнашувчиларининг таклифларини қабул қилиш муддати 5 кун олдин бюджет ташкилоти томонидан махсус ахборот порталига (etender.uzex.uz) 2022 йил 10 октябрь куни №22110012160429 лот бўйича ва 2022 йил 21 Октябр кунги №160429 сонли баёнома бўйича ҳеч қандай этроз келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида” Конун талабларига ва юқоридаги кўрсатилган маълумотларни ҳисобга олиб танлов комиссияси

Қ А Р О Р Қ И Л А Д И :


1.Тўрткўл тумани Тинчлик МФЙ худудига электр энергия таъминлаш учун электротовар харид қилиш ишларини амалга ошириш бўйича ўтказилган танлов ҳужжатларидан ҳамда танолов шартлари бўйича энг яхши таклифларни таклиф қилган ва танлов ғолиби деб ХОРАЗМ KABEL SAVDO МЧЖ 159,456,960,00сўм (ҚҚС билан бирга) шартнома тузилсин.

2.Танлов ғолиби танлов шартлари асосида шартнома тузишдан бош торган тадбирда шартнома тузиш ҳуқуқи кейинги катнашувчи (резерв) қилиб ИПАК ЙУЛИ ХОЗТОВАР МЧЖ белгилансин. Бунда Ғолиб катнашувчи таклиф қилган суммасидан ошмаган миқдорда шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб қўйилсин.





3.Конун талабларига мувофик танлов қатнашувчиларнинг таклифларни кўриб чиқиш ҳамда баҳолаш муддати таклифларни бериш тугашидан 10 кун муддатдан ошиб кетиши мумкин эмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.

Ташкилотнинг бош ҳисобчиси М.Нуриев танлов якуни бўйича ғолиб билан шартнома шартларини таёрлаш ҳамда шартнома тузилгандан кейин 3 иш куни ичида тегишли ахборот шартномага (etender.uzex.uz) жойлаштириш топширилсин.
5. Танлов комиссияси котиби Р.Раимов ушбу танловга тегишли барча ҳужжатларни белгиланган тартибда сақланиши таъминлансин.

Комиссия раиси:

А.Юсупов-  Тўрткўл туман Ободонлантириш бошқармаси бошлиғи, комиссия раиси

Комиссия аъзолари:

М.Таджибаев  Булим бошлиғи, комиссия аъзоси
М.Кулиμβетов  Туман молия бўлими мутахассиси, комиссия аъзоси
Р.Раимов  Булим бошлиғи, комиссия аъзоси
Д.Ходжаниязов  Механик, комиссия аъзоси